

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası

Haydarova Majnuna Hamroqul qizi

3-sinf ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanish.

5141600- boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr akademik darajani olish uchun yozilgan

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi X.Xo'janov

Malakaviy bitiruv ishi boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2013 yil ___maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №___).

Kafedra mudiri:

f.f.n.F.Shodiyev

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2013 yil ___iyundagi majlisida himoya qilindi va foizga baholandi (bayonnoma №___).

YaDAK raisi:

A'zolari:

Samarqand – 2014

REJA

KIRISH

I BOB. 3-sinf ona tili darslarida inrerfaol usullardan foydalanishning nazariy asoslari

1.1 . Pedagogik texnologiyalarning mazmuni va mohiyati.

1.2. Boshlang'ich sinflardagi didaktik jarayonga umumiy tavsif

II BOB. 3-sinf ona tili darslarida inrerfaol usullardan foydalanishning amaliy shakl va metodlari

2.1. 3-sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan noan'anaviy o'qitish metodlari tavsifi

2.2.3-sinf ona tili darslarida inrerfaol usullardan foydalanishning shakl, metod va vositalari.

2 .3 Tajriba-sinov ishlari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Farzandlarimiz, yoshlarimiz bizning nafaqat ishonchimiz va kelajagimiz, yoshlarimiz bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir”

I.Karimov.

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi:

Yangi asr o`qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim te bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg`or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari» asarida O`zbekistonda qabul qilingan o`ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan¹. Buni ta'minlash bo`lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo`llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug`ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo echimini ham muhtaram Prezidentimiz o`zining «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» asarida “...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan, ongli,

¹ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. - Toshkent: O`zbekiston,2009. – 6.7.

yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim,” deb ta'kidladi².

O'zbek (ona) tilini o'qitish markazida til o'rganuvchilarning o'zaro hamda o'qituvchisi bilan nutqiy muloqoti turmog'i lozim bo'ladi. Ammo mana shu muloqot to'g'ri yo'lga qo'yilishi uchun grammatika qonun qoidalarini yaxshi bilishga qo'maklashuvchi topshiriqlardan iborat mashg'ulotlar nazariy yoki amaliy ahamiyat kasb etibgina qolmay, talabalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi, orttirishga ham hissa qo'shishi talab etiladi.

Ana shu qiziqishni shakllantirishda, uni tobora mustahkamlab borishda qiziqarli grammatik topshiriqlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabda tayanch grammatik bilim olgan talabalar uning amaliy tadbirini tavsiya etilajak qiziqarli topshiriqlar misolida rivojlantirishlari ko'zda tutiladi.

O'qituvchi har bir mavzu va topshiriqni nafaqat nutq o'stirishga, shuningdek, yoshlar dunyoqarashini boyitishga, tafakkur doirasini kengaytirishga ham xizmat qildirishi shart ekanligini yodda tutishi darkor.

Til ta'limidagi to'rt zaruriy amal – tinglash, so'zlash, o'qish va yozishning mutanosib tarzda olib borishga harakat qilish zarurligini ta'kidlash joiz. Ammo mavzuning mazmuniga mos ish tutib, bir xil topshiriqlar og'zaki nutq, boshqalari yozma nutq ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, o'zlashtirilgan har bir mavzu darsdan tashqari tadbirlar bilan uzviy bog'lanishiga erishish lozim. Bularni o'rni bilan sahna siqishlarini tashkil etish, rolli o'yinlar o'tkazish yaxshi samara beradi.

² I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

Shu nuqtai nazardan qaraganda va odilona nazar tashlanganda tanlangan va amalga oshirilgan muammo (mavzu)ning o'zi nihoyatda dolzarbligini, qolaversa uning o'quv jarayonidagi roli benihoyat katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'limda savod o'rgatish davri asosiy davrlardan hisoblanadi. Agar o'quvchi savod o'rgatish davrida yaxshi o'zlashtirsa, yuqori sinflarda ham yaxshi natijalarga ega bo'ladi. Umumiy o'rta ta'limda yaxshi natijalarga erishgan o'quvchi kelajakda yaxshi kasb egasi bo'lib jamiyat uchun, uning ravnaqi, xalqning farovon yashashi uchun jon kuydiradigan mutaxassis bo'lib kamol topadi.

Ta'lim sohasidagi muhim hujjatlar – «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «2004-2009-yillarga mo'ljallangan maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi» talablariga asosan yosh avlodga jahon ta'lim standartlari darajasida ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutilgan. Milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalariidan biri komil inson g'oyasi hisoblanadi. O'quvchilarni komil inson etib tarbiyalash har bir pedagogning vazifasidir. Komil inson asosiy g'oyasini amalga oshirishda savod o'rgatish davri muhim ahamiyatga ega.

Ushbu dolzarb muammolarga bag'ishlangan mazkur malakaviy bitiruv ishida savod o'rgatish davrining o'ziga xos xususiyatlari, savod o'rgatish davrining asosiy darsligi hisoblangan «Alifbe»ning afzalliklari, rang-barangligi ko'rsatilgan. Tadqiqot ishi natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari, boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi talabalari uchun dasturulamal bo'ladi degan umiddamiz

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi»ni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bilan ta'limda sifat va samaradorlikka

erishish va shu orqali modernizatsiya qilingan ta'lim standartlari to'liq bajarilishi ta'min etish davri boshlanadi.

Davlatimiz tomonidan yangi maktablar qurilishi, minglab maktablarni yangitdan rekonstruktsiya qilish, joriy ta'mirlash ishlari jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

Maktablarni yangi jihozlar, asbob-uskunalar, takomillashtirilgan dasturlar, modernizatsiya qilingan, tajriba- sinovdan o'tgan standartlar, darsliklarni yangi avlodi bilan (ijara tariqasida) ta'minlash, komp'yuterlashtirish Davlat umummilliy dasturi asosida izchil amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda mustaqillik yillarida olib borilgan ta'lim sohasidagi islohotlar bevosita o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o'rniga darslarni tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, mas'uliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil etiladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ta'limda moddiy baza, standart, o'quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv- biluv markazida esa o'quvchi turmog'ini taqozo etadi.

Har qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish, xoxish istagiga ehtiyojiga qaratilmog'i kerak. Ya'ni ta'limni individuallashtirishga qaratilmog'i talab etiladi. Ta'limni individuallashtirish nima? degan savolga javob beraylik:

- a) ta'lim jarayonini individuallashtirish shunday o'qitish usuliki, bunda har bir o'quvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'quv biluv jarayoniga shaxsiy hissa qo'shishi hisobga olinadi;
- b) ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi;

c) o`quv-metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda o`quvchi shaxsi o`quv biluv markazida bo`ladi.

Boshlang`ich ta`limda asosiy davrlardan biri hisoblangan savod o`rgatish bosqichi keyingi ta`lim bosqichlarida o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalar o`zlashtirish samaradorligini ta`minlab beradi. Shu nuqtai nazardan bu davrdagi ta`lim jarayonini noan`anaviy o`qitish texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish dolzar pedagogik muammolardan biridir. Ushbu dolzarb pedagogik muammolar asosida biz bitiruv malakaviy ishimizni «3-sinf ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanish» mavzusida belgiladik.

Tadqiqotning maqsadi: 3-sinf ona tili darslarida o`quvchilarning bilim saviyasini oshirishda noan`anaviy o`qitish texnologiyalardan foydalanishning shakl va usullarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti: 3-sinf ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanish texnologiyalari.

Tadqiqotning predmeti: 3-sinf ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanish jarayoni.

Tadqiqotning farazi: 3-sinf ona tili darslarida o`quvchilarning bilim o`zlashtirish samaradorligi oshadi. Agarda:

- O`quv jarayonida inrerfaol usullardan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari ilmiy nuqtai nazardan asoslansa;

- 3-sinf ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanishga qaratilgan ta`lim modeli haqidagi ma`lumot umumlashtirilsa;

- 3-sinf ona tili darslarida o`quvchilar mustaqilligini ta`minlashning va ta`limni individuallashtirishning shakl va metodlari belgilansa.

Malakaviy bitiruv ishini bajarishda tadqiqotning maqsadi va qo`yilgan farazlar asosida quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- 3-sinf ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklarini mavjud ilmiy adabiyotlar va monografik tadqiqotlar natijalari asosida asoslash;

- 3-sinf ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanishga qaratilgan ta`lim modeli haqidagi ma`lumotlarni umumlashtirish;

- 3-sinf ona tili darslarida o'quvchilar mustaqilligini ta'minlashning va ta'limni individuallashtirishning shakl va metodlarini aniqlash;

- 3-sinf ona tili darslarida ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan interfaol ta'lim metodlari va didaktik o'yinlardan foydalanish shakllarini belgilash.

Mavzu muammosini yoritishga qaratilgan ushbu vazifalarni bajarishda quyidagi **tadqiqot metodlaridan** foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni o'rganish; pedagogik kuzatish; anketa so'rovi; suhbat; intervyu; test so'rovi; tahlil qilish, umumlashtirish; pedagogik tajriba;

Tadqiqotning metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari; Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi Qonun va Qarorlari; «Ta'lim to'g'risidagi» Qonun; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»; Uzluksiz boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi; «Boshlang'ich ta'lim to'g'risidagi talablar»; DTS; «Maktab ta'limi to'g'risidagi Nizom va Konsepsiyalar» tashkil etadi.

Tadqiqot bazasi. Tadqiqotning bazasi sifatida Samarqand shahar 14- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi xizmat qildi.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi: Tadqiqot kirish, ikki bob, umumiy xulosa, adabiyotlar ruyxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi _60__betni tashkil etadi.

I BOB. 3-sinf ona tili darslarida inrerfaol usullardan foydalanishning nazariy asoslari

I.1. Pedagogik texnologiyalarning mazmuni va mohiyati.

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tuzilmalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak va avvalo har tomonlama rivojlangan, sog'lom fikr yuritadigan, jahon yoshlari bilan har sohada raqobatbardosh, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalamoq zarur. Intellektual salohiyatli barkamol yoshlarni tarbiyalashda esa yurtimiz har bir pedagogining o'z kasbiga bo'lgan ma'suliyati va bilimlari zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida o'qituvchilarning o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga ta'sirini yuqori baholab shunday degan edi: "Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu hamqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebehomerosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi murabbiylarining olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy

dunyasini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizda yaxshi tasavvur qilamiz⁴».

Bugun ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida maqsad qo'yilgan. Bu o'quvchilarga ijodiy jihatdan o'z-o'zlarini namayon qilishlari uchun imkoniyat yaratish va ularda ijobiy-shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ko'maklashishdan iborat. Shu boisdan ham, bugungi kunda o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini yaxshilash maqsadida ta'lim samaradorligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ta'lim ravnaqini ta'lim tarbiya amaliyotida samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo'llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi pedagogik texnologiyalar ta'minlaydi.

Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi? «Pedagogik texnologiya» nimani anglatadi?

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mzmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

4. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008-y. 130-bet

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi.

Pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini o'zi

rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining subyekti - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda.

Birinchidan, pedagogik texnologiya ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalalanadi. Binobarin har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi. «Maqsad» esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ilmiy texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayotganligi va o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelayotganligi, o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli vositalar mavjudki ular yangi pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Uchinchidan, sanoat va boshqa texnologiyalarning auditoriyaga uzluksiz kirib kelishi va jonli o'quv ob'ektlariga aylanishi o'qituvchining an'anaviy metodika doirasidan chiqib ketishiga va tabiiy ravishda, texnologik yondashuvlarni qo'llashga ehtiyojni tug'dirmoqda.

Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etish va ta'lim sifati, samaradorligini oshirishda o'z hissasini qo'shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini unutmasligi lozim.

"Texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan texnos- san`at, hunar va logos-fan, ta`limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani " ma`nosini anglatadi. Biroq bu ifoda texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon, bu – mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo) ga bosqichma- bosqich ta`sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina) ning faoliyatidir. «Pedagogik texnologiya» so'z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan kiritilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya g'ar

doim zaruriyat vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadni amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur mahsuli degan xulosaga kelish mumkin. U faoliyatni tubdan takomillashtirishga, uning natijaviyligini, tezkorligini, texnikaviy qurollanganligini oshirishga oid amaliy tadqiqotlar yo'nalishini aks ettiradi.

Shunday qilib, “texnologiya” deganda insonning aniq, murakkab jarayonni ketma-ketli o'zaro bogliq muallaja va amallar tizimiga taqsimlash yo'li bilan kafolatli natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladigan usullar tushuniladi.

Texnologiya (jarayon sifatida) uchta qoida bilan tavsiflanadi:

- jarayonni o'zaro bog'liq bosqichlarga taqsimlash;
- izlanayotgan natijaga (belgilangan maqsad) erishishga qaratilgan harakatlarni izchil va bosqichma-bosqich bajarish;
- qo'yilgan maqsadga mos natijaga erishishning zaruriy sharti hisoblangan texnologik muallaja va amallarni bajarishning alohida ahamiyat kasb etishi.

Hozirgi kunda jahon miqiyosida ishlab chiqarilgan va foydalanilgan texnologiyalarni ikki turga bo'lish mumkin: sanoat va ijtimoiy texnologiyalardir. Ijtimoiy texnologiyalar har qanday sharoitga moslasha oladi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq taxnologiyasi ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarishda texnologiya so'zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

Texnologik jarayon- ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisi.

Texnologik operatsiya - ishchi tomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik xarita- ma`lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo`lib, ma`lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ana shu ta`rif va tushunchalarni o`quv jarayoniga ko`chirsak quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Pedagogik texnologiya - bu o`qituvchining o`quvchilarga o`qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta`sir ko`rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o`quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «o`qitish texnologiyasi», «ta`lim texnologiyasi» tushunchalari ham ishlatiladi

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog`liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo`lmagan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o`ziga xos jihati – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o`zining ko`p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to`liq namoyon bo`lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog`liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo`ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog`liq.


Ta`lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta`limi oldiga qo`yilgan muhim vazifalardandir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta`lim jarayonining unumdorligini oshir`di, o`quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o`quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam

o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bir safda turadi, chunki ular kabi boshqalari ham o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma'lum "material" bilan ish ko'radi. Biroq Pedagogik Texnologiyalar inson ongi bilan bog'liq bilimlar soxasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik xatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos tomonlari –tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganliklaridir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini, oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to'liq bajarishi mumkin. Natijada, mantiqiy bog'langan qisqa yo'llardan shunday olib boriladiki, oqibatda o'quvchilar deyarli xato qilmaydilar va o'quvchi ularning natijasini ma'lum qilish bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim maqsadini to'la amalga oshirish sari yana yangi qadamlar qo'yiladi.

Pedagogik texnologiyaning tuzilmasini quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:



1-rasm. O'qitish texnologiyasi tuzilmasi.

Hozirgi davr ta'lim nazariyasida pedagogik texnologiya tushunchasiga keng urg'u berilmoqda. Pedagogik texnologiyaning mazmuni o'qituvchi tomonidan o'quvchiga aqliy, ruhiy, axloqiy jihatdan turli usulda ta'sir o'tkazishdan iboratdir

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri edi. Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o'tkir fikrlaydigan kishilar to'g'risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular

fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r istidodga ega; yomon ishlardan o'zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar⁵». Uning fikricha, «Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar⁶».

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik goyalarining ustuvorligiga

O'qituvchining faoliyati mezonlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- maqsadning aniqligi va uni tashxis etish mumkinligi;

5. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. 182-b.

6. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. . 184-185-b.

- o'rganilayotgan mavzuga oid nazariy va amaliy masalalar va uni yechish usulining tizimli tarzda taqdim etilishi;

- mavzularning kema-ketligi, mantiqiyliqi, bosqichma-bosqich bayon etilishi;

- o'quv jarayonining har bir bosqichida ishtirokchilarning o'zaro harakat usullarining ko'rsatilishi;

- o'qituvchining eng samarali o'qitish vositalaridan foydalanishi;

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va ob'ektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi .

Pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifalarini o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarini o'zlashtirishga yunaltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya fan sifatida ham, shuningdek, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan prinsiplar, yo'l va usullar sifatida ham shakllanib kelmoqda.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda

ko'plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiyani pedagog olimlar turlicha ta'riflashadi.

T.S.Nazarova ta'rificha: «Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuidir»⁷

Nufuzli YUNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif bo'yicha «Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir»⁸

“Pedagogik texnologiya” tushunchasining tarixiy shakllanishi va rivojlanishida turlicha yondashishlar mavjudligini pedagogika fanlari doktori professor Nurali Saidaxmedov ushbu sohaning etakchi mutaxassisi sifatida muammoni yoritayotgan olimlarning g'oyalarini fikrli ravishda 3 guruhga ajratib, quyidagicha izohlaydi:

-ba'zi olimlar masalaga “pedagogikadagi zamonaviy yo'nalish” deb an'anaviy yondashadilar va o'z imkoniyatlari doirasidagi muammoga ilk bor qo'l uradilar (X.Abdukarimov, K.Zaripov, T. Nazarov, U.Nishonaliev);

-boshqa guruh tarafdorlari ta'limning bugungi ahvoliga qayg'uradilar va uni inqirozdan qutqaruvchi kuch, texnologiyalashtirish deb qaraydilar.(I.Ya.Lerner, F.Fradkin, Dj. Bruner, T.Sakamota);

-uchinchi guruh olimlari texnollashtirishni ob'ektiv jarayon deb yangicha sifatiy muammolarni echish uchun ta'limning evolyutsion bosqichga ko'tarilish shartlaridan biri ekanligini e'tirof etadilar.(V.P.Bespalko, M.V.Klarin, M.Klark, T.A.Ilina).

Ko'rib chiqilgan barcha yo'nalishdagi qarashlarda an'anaviy pedagogik texnologiyadan ma'lum darajada chekinish va pedagogik texnologiyaga texnik

⁷ Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: noviy etap evolyusii.- T., 1999, 16 b

⁸ Farberman B.L. Progressivnie pedagogicheskie texnologii.-T.,1999, st.3.

rivojlanish taraqqiyoti nuqtai nazaridan qarash g'oyasi mavjudligi seziladi. Shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarga shaxsni rivojlantirish jarayoni shaxsga yunaltirilgan ta'lim deb qarash mujassamlashgan. Zero, mustaqillik va demokratik rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatimizning bosh vazifasi ham ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdan iboratdir. Ma'lumki, o'quv jarayoni texnologik tayyorgarlikning asosi hisoblanib barcha operatsiyalar, o'qitish jarayoni orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonlik olim N.Sayidaxmedov fikricha: «Pedagogik texnologiya- bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir».⁹

Yirik pedagog olimlarimizdan biri M.Ochilov pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosaga keladi: «Pedagogik texnologiya- tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir».¹⁰ U pedagogik texnologiyaga ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui deb qaraydi. «Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyaning ob'ektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir», -deb ta'rif beradi.

Ko'rib turganimizdek, «pedagogik texnologiya» tushunchasini ta'riflashda hali yagona fikrga kelinganicha yo'q.

⁹ Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. «Xalq ta'limi», 1999 y, 1-son, 98-bet.

¹⁰ Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. o'quv qo'llanma. Qarshi, «Nasaf», 2000 y, 13-bet.

1.2. Boshlang'ich sinflardagi didaktik jarayonga umumiy tavsif

Ma'lumki mamlakatimizda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning tub mohiyati barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Barkamol avlod esa ta'lim – tarbiya muassasalarida amalga oshiriladigan ta'lim jarayoni bilan bevosita bog'liqdir.

Ta'lim jarayoni o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, ularni vatanni sevish va unga sodiqlik ruhida tarbiyalash ularni vatanni sevish va unga sodiqlik ruhida tarbiyalash kabi muhim vazifalarni ado etadi. Ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki tarbiya berish ham xal qilinadi.

Bilim jarayonining ilmiy, nazariy, uslubiy va Amaliy asoslarini ya'ni ta'lim, bilim berish o'qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo'limi didaktika – ta'lim nazariyasi shug'ullanadi.

Didaktika – grekcha so'z bo'lib, «didasko», ya'ni «o'qitish», «o'rgatish» ma'nolarini bildiradi. Ta'lim qonuniyatlarini o'rgatish, tahlil qilish jarayonida ta'lim tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vazifalari, o'qitish prinsiplari, shakllari haqida bilimlar bayon etiladi. Didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi.

Ta'lim – insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini yoritib o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiqo'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o'quvchi talabaga ta'sir ko'rsatadi bu esa ularning bilim olishlarini yanada rivojlantiradi, natijada o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. ta'limdavgi yutuqlar avvalo o'quvchiga bog'liq. Mutaxassis sifatida o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqat ustasi bo'lishi, psixologik – pedagogik va uslubiy bilim va malakalarni egallashi har xil pedagogik vaziyatlarni zudlik bilan o'rganish va baholash, pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak.

Mustaqil ishlash iste'dodini shakllantirish, kasbiy layoqat hissini, pedagogik voqeya va hodisalarni taqqoslash, tahlil qilish va xulosalash ko'nikmalarini rivojlantirish – bularning barchasi ta'lim jarayonining asosiy vazifasidir.

Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi. Ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir.

Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllanadi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi. Ta'lim berish yoshlarga bilim berish. Ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ya'ni haqiqatni ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

Maktabda o'qitiladigan fanlar tizimi ta'limning vazifa va xususiyatlariga muvofiq ravishda kengaytiriladi. Boshlang'ich sinflarda tabiat va jamiyat hayotidagi hodisalar, qonuniyatlarni ochib berish natijasida ilmiy bilimlar bilan qurollantiriladi. Ular shu asosda atrofdagi moddiy olamni to'g'ri tushuna oladilar. O'qituvchi o'z fikrini qanchalik soda bayon qilmasin u chuqur ilmiy bo'lishi zarur. Ta'limning ilmiy bo'lishi to'g'risidagi talab o'qituvchining o'quv materiali mazmuninigina emas, balki uning shu materialni yoritib berish xarakteriga va o'quvchilarning bu bilimlarni o'zlashtirib olishlariga ham bog'liqdir. O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur jarayonini to'g'ri amalga oshirish uchun amaliyot har qanday bilish jarayonining asosi degan g'oyani esdan chiqarmasligi kerak. O'qituvchi dars jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi u

o'quvchilarning tafakkur faoliyatiga ham rahbarlik qiladi. Ya'ni o'quvchilarning turli fanlarni o'zlashtirish borasidagi bajaradigan mustaqilligini shakllantirish, ongli yondoshish tashabbuskorligini oshirish kabi holatlar.

Avvalom bor o'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatlarini amalga oshirish maqsadida olib boriladigan darslar jarayonida quyidagi maqsadlarga alohida e'tibor berish lozim:

- a) ta'limiy maqsad – o'quv materialining mazmunini bilish, ya'ni Ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amalga tadbiiq qila olish;
- b) tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, e'tiqodlarini shakllantirish;
- v) rivojlantiruvchi maqsad – o'qitish jarayonida shaxsning aqliy kamolotini, qobiliyatini o'qishga mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish jarayonida o'quvchining mustaqillik faoliyatlari ro'yobga chiqadi.

Bu bog'liqlikni avvalo ta'limni amalga oshirish bosqichlarida ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

1. O'quv materiallarini idrok qilish. Bunda o'quvchi ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

2. Ular o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda Yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

3. Yangi bilimlar mashqlar, mustaqil ishlar o'qituvchining qo'shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi.

4. Ular o'zlashtiribolgan bilimlarni imkoniyatga qarab amaliyotga tadbiiq qiladilar.

Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim – tarbiya jarayonini samarali boshqarish mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining hamma bosqichlarida o'qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan

xulosa chiqaradigan bo'lsak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi. Jumladan,

1. O'quvchi va talabalarda bilim malkalarini hosil qiladi
2. Ularda dunyoqarash, ishonch va e'tiqodlarini o'stiradi.
3. Yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, tarbiyali kishilar bo'lib yetishishlariga, qobiliyat va iste'dodlarini o'stirishga erishiladi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o'qituvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlik pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu avvalo pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishda ko'rinadi. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchiga qiziqib qarashi uning ehtiyoji va xususiyatlarini tushuna bilishi lozim.

O'qituvchi keng ko'lamdagi didaktik bilimlarga, pedagogik mohoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari darajasida ta'lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

Ta'lim mazmuni uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deyilganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan, hamda tizimga solingan bilim, ko'nikma, malkalarning aniq belgilangan, qamrab olingan doirasi tushuniladi.

O'zbekiston respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlaganidek ta'limning mazmuni voyaga yetib kelayotgan barkamol avlodni hayotga mehnat qilishga tayyorlash bilan belgilanadi. Shuningdek ta'lim mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish lozim.

1. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy tizimning xususiyatlari.
2. Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan davlat ta'lim stanlartlarining maqsad va vazifalari
3. O'qituvchi qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini yosh xususiyatlari, qiziqishlarini e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

4. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplariga va didaktik tamoyillariga muvofiqligicha amal qilinishi lozim.

Demokratik jamiyat qurayotgan bizning respublikamizda ta'limning mazmunini quyidagi yo'llar bilan takomillashtirish ko'zda tutiladi:

- fan va tajribadagi eng Yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish;
- ikkinchi darajaldi va ortiqcha murakkablashtirilgan materiallardan qutilish;
- o'rganilayotgan fanlar ro'yxatini va materiallar hajmini aniqlash hamda o'quvchi yoshlar albatta o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarining optimal hajmini belgilash;

- o'quv fanlariga oid asosiy tushunchalarni va yetakchi g'oyalarni juda ham aniq bayon qilish;

- o'quvchilarni pedagogik texnologiyalar: kompyuter, Kserks, elektron pochta vash u kabi boshqalar to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda shu texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Umimiy ta'lim – bu o'quvchilarning har tomonlama umumiy tayyorgarligini va rivojlanishini ta'minlovchi fan asoslarini egallab olishdir.

Kasbiy ta'lim – insonning o'zi tanlagan, nisbatan tor yo'nalishdagi mehnat faoliyatiga xizmat qiladi.

Rolitexnika ta'limi – o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari, uning energetikasi haqidagi bilimlar sistemasi bilan ta'minlaydi hamda inson faoliyatining turli sohalaridagi ish operasilarini o'zlashtirib olish uchun baza ahamiyatiga ega bo'lgan bir qator mehnat ko'nikma va malakalarini egallash nazarda tutiladi.

Ma'lumot mazmuni – yoshlarning ma'lumoti, taraqqiyoti, tarbiyasini mo'ljallab, hozirgi zamon Fani, texnikasi, ishlab chiqarishi, fikrlashining umumiy asoslarini didaktik ishlov berish yo'li bilan tanlangan bilimlar, ko'nikma - malakalar, ijodiy tajribasi va munosabatlardir.⁹

Ta'lim mazmuni yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim,

⁹ O.P.Розиқов ва бошқалар. Дидактика. Тошкент, Фан, 1997, 111-бет.

ko'nikma, malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir. Ta'lim mazmuni ma'lumot mazmuni asosida tanlanadi. Ta'lim mazmunini o'rgatish va o'zlashtirish yo'li bilan ma'lumot mazmunini amalga oshirishda o'quvchilarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalashga olib boradi. Ta'lim mazmuni quyidagi davlat hujjatlarida o'z aksini topadi.

O'quv rejasi davlat hujjatidir. O'quv rejasi barcha ta'lim –tarbiya muassasalari, shuningdek umumiy o'rta ta'lim maktablari ham so'zsiz amal qilishi lozim bo'lgan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo'yicha o'rganishi lozim bo'lgan o'quv fanlaridan o'sha fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Maktabning yagona o'quv rejasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejasi deb o'qitiladigan fanlar o'qitish uchun ajratilgan sotlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi.

O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi:

–o'quv rejasi o'quv tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maqsad ilmiy bilimlar berish, olgan bilimlarni hayotda qo'llay olishga o'rgatishdir

– maktablarning birligi o'z qoidalariga asoslanadi, ya'ni boshlang'ich maktab umumiy o'rta ta'limlarni o'zaro bog'liqligi

– umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga bir butun tugal bilim beriladi.

O'quv rejasiga kiritilgan fanlarning hajmi qaysi sinfda o'qitilishi. Ajratilgan soati, bolalarning yosh va bilim saviyasiga qarab beriladi. Fanning hajmi og'ir yengilligi didaktik ahamiyati ham e'tiborga olinadi. O'quv rejasiga kiritilgan fanlar birinchi navbatda, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vaz-ifalarini amalga oshirishda qaratilgandir. Unda ta'limning ilmiyligi, g'oyaviyligi hamda O'zbekistonning kelajagi munosib yosh avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish nazarda tutiladi.

Shuning uchun ham unda tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlar, ishlab chiqarish asoslari, san'at va jismoniy tarbiya, sog'lom avlodning ma'naviy qiyofasi asosiy o'rinni egallaydi.

O'quv dasturi har bir fan uchun alohida tuziladi. O'quv dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanini o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir.

O'quv dasturida o'quv yili mobaynida har qaysi sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malkalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o'quv fanlarining mazmuni izchilik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi.

Ma'lum mavzu yuzasidan o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malkalar qisqacha ifodalab beriladi. O'quv dasturi quyidagi bir qator qoidalarga amal qilgan holda tuziladi.

1. O'quv dasturining qat'iyligi jamiyatimiz taraqqiyotining prinsiplariga asoslangan holda Fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar qiralaridagi erishgan yuqori darajasini ilmiy asosda aks ettirish lozim.

2. O'quv dasturi ilmiylik prinsipi asosida tuzilib har bir ta'lim atribiya mazmuni, g'oyalari ishonchli dalillar va manbalar asosida kiritiladi.

3. O'quv materialari mazmunini to'g'ri tanlash, fan materiallarini tanlashda unda isbotlar, misollar, mantiqiy xulosalarning to'g'ri uyg'unlashuviga alohida e'tibor beriladi.

4. O'quv dasturida nazariyaning amaliyot birligi prinsipi eng avvalo ilmiy bilimlarning turmushda ishlab chiqarish amaliyotida tutgan o'rni ko'rsatib beriladi. Ilmiy bilim ko'nikma va malkalarning o'zaro mustahkam bog'liq bo'lishi hamda ta'lim jarayonidagi nazariy ma'lumotlarning amalda qo'llanib borish jarayonida o'z aksini topadi.

Dasturning markazlashgan tuzilishda mazkur fanga tegishli o'quv materiali fanlararo integrasiyasiga e'tibor beriladi.

O'quv dasturlari doimiy ravishda fan texnika yangiliklarin inobatga olib, yangi mazmunlar bilan to'ldirilib boradi. Darslik o'quv jarayonining asosiy qismidir. O'quvchining uyda mustaqil shg'ullanishi zarur qo'llanmadir.

Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi manbadir.

Darsliklar bilan bir qatorda ba'zi o'quv fanlari yuzasidan o'quv qo'llanmalar, mashqlar to'plamlari, xrestomatiya va boshqalar shular jumlasidandir.

O'quvchilarning o'quv qo'llanmalardan foydalanishlari ularning o'quv materiallari ustida tizimli ish olib borishlari ilmiy bilim ko'nikma va malkalari bilan yanadi mukammalroq qurollanishlariga keng imkoiyatlar yaratadi.

O'quvchilar darslik o'quv qo'llanmalari bilan ham darsda, hamda uyda mutaql ravishda shug'ullanadilar. Darslik materiall katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U bilan ishlash o'quvchilarning aqliy tarbiyasiga, ularda ilmiy dunyoqarashlarini axloq – odobning shakllanishiga, tafakkuri va nutqining, ishdagi mustaqilligining rivojlanishiga yordam beradi.

Darslik quyidagi didaktik talablarga rioya qilgan holda yaratilada.

1. Darslikda aks etgan ilmiy bilimlar sinf o'quvchilarining yosh xususiyatiga mos kelishi kerak

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asossi g'oyalari tizimli izchil bo'lishi talab qilinadi.

Ular hayotdan olgan, ishonari bo'lishi lozim

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqirish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak.

4. Darsilda mavzu sodda ravon tilda yoz. Yozilishi hamda tegishli qoidava ta'riflar berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi rasmlar va bezatilishi o'quvchining yoshiga mos faning xarakteriga monand bo'lishi kerak.

5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

Darslikning tashqi ko'rinishi, bezagi o'sha sinf o'quvchilarining estetik didlariga mos kelishlari kerak.

Ta'lim jarayonining muhim tarbiyaviy qismlaridan biri ta'lim prinsiplaridir.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi va kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri – deb ta'kidlanadi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da. Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv tarbiya jarayonining hamma bosqichlarini qamrab oladi hamda har tomonlama yetsuk barkamol avlodni yetishtirish uchun shart – sharoitlar yaratadi. Dasturda uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari ham o'z ifodasini to'liq topgan. Bular:

- ta'limning ustuvorligi
- ta'limning demokratlashuvi
- ta'limning insonparvarlashuvi
- ta'limning ijtimoiylashuvi
- ta'limning milliy yo'naltirilganligi
- ta'lim va tarbiya uzviy bog'liqligi
- iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori darajada bilim olishlari uchun shart – sharoit yaratish¹⁰ kabilardir.

Pedagogikada ta'limning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari alohida, ya'ni didaktika qismida qismida o'rganiladi. Bu jarayonda ta'lim prinsiplariga alohida to'xtaladi. Xo'sh ta'lim prinsiplari Kim uchun va nima uchun kerak? U o'quvchi faoliyatiga ham daxldormi?

Ta'lim jarayoni murakkab hamda ko'p qirralidir. Bu jarayonning muvaffaqiyati va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun qoidalari, ya'ni ta'limga qo'yilgan didaktik talablarga qay darajada amal qilishlariga bog'liq.

Ta'lim prinsiplari o'quv tarbiya jarayoniga qo'yilgan ijtimoiy talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarishda rioya qiladigan qoidalar sifatida amal qiladi.

¹⁰ «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» Toshken, 1998 43-44-betlar

Ta'lim prinsiplari deb umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishlarini, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi bilim va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarning majmuasiga aytiladi.

Keyingi yillarda olimlar tomonidan yaratilgan pedagogik adabiyotlarda didaktik prinsiplar turlicha guruhlashtirilgan. Anna shularga asoslangan holda quyidagicha ta'lim prinsiplarini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Ta'limning ilmiy bo'lishi
2. Bilimlarni tizimli va izchil o'zlashtirib olish
3. Ta'limning tarbiyalovchilik xarakteri
4. Tarbiyada nazariya va amaliyotning bog'liqligi
5. Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik
6. ta'lim jarayonining ko'rsatmali bo'lishi
7. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Bilimlarni tizimli va izchil o'zlashtirish borasida o'zining «Buyuk didaktika» asarida Ya.A.Komenskiy asoslab bergan edi. U tabiatda bir narsa ikkinchi narsa bilan bog'liq bo'lganidek, ta'limda har bir narsa ikkinchi narsa bilan aloqada bo'lmog'i har bir mashg'ulotda o'rganilgan bilim keyingi o'rganilgan bilimlarga yo'l ochish deb hisoblaydi.

Ta'lim prinsiplari o'qituvchi faoliyatini va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi tegishli malaka va ko'nikmalar hosil qilishning asosiy qonun va yo'l – yo'riqlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta'lim prinsiplari har ikkala faoliyatni, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatlarini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi.

Ta'lim samaradorligini oshirishda o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlarning o'rnini katta ahamiyatga ega. O'qitish metodlari deyilganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyati tushuniladi. O'qitish metodlari ta'lim jarayonida

o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

Ta'li metodi ta'limning maqsad va vazifalariga bog'liq. Metodlar o'quvchilarning yoshiga, ta'limning mazmuniga qarab ta'minlanadi.

Bugungi kunda pedagogika darsliklarida va orttirilgan pedagogik tajribalarga ko'ra ta'lim metodlar quyidagi turlarga ajratilgan:

1. O'qitishning og'zaki metodlari
2. O'qitishning ko'rgazmali metodlari
3. O'qitishning amaliy metodlari

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasini o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai didaktik vazifalarga qarab munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi

- o'qitishning og'zaki metodlari;
- o'qitishning ko'rgazmali metodlari;
- o'qitishning amaliy metodlari;
- muommoli everistik modellashtirish metodi;
- o'qitishning muommoli izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning indiktiv va dediktuv;
- o'qitishda rag'batlantirish va tanbeh berish metodi;
- o'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Metodlar o'z navbatida guruhlarga bo'linadi.

O'qitishning og'zaki metodlari uch turga a) o'qituvchining hikoyasi, b) suhbat, v) maktab ma'ruzalariga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda eng ko'p qo'llaniladigan metod hikoya va suhbat metodlaridir. O'qitishning ko'rgazmali metodlari namoyish etish, illyustrasiya va ekskursiya tarzida olib boriladi. Ta'lim jarayonida namoyish etish metodidan foydalanish asosan materialning xarakter iva mazmuni, shakli va hajmiga bog'liq. Mazmuniga qarab namoyish etish ham quyidagilarga bo'linadi:

1. Ko'rgazmali qurolning aslini ko'rsatish (kichik o'simlik, hayvon va boshqalar)

2. Tasviriy ko'rgazmali metodlar (surat, diafilm, kompyuter materiallari)

3. Simvolik va sxematik tasviriy materiallar (globus, karta) o'qitishning amaliy metodlari maktab maydonchalaridagi tajriba ishlari, gullarni parvarish qili,shmatematikadan turli o'lchamlar kuzatish, loybaratoriya ishlari va hokazo.

Ta'lim samaradorligini oshirishda bugungi kunda kompyuter, multmediya, kodoskop va shunga o'xshash vositalardan foydalanish yaxshi natija beradi

II BOB. 3-sinf ona tili darslarida inrerfaol usullarda foydalanishning amaliy shakl va metodlari

2.1. 3-sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan noan'anaviy o'qitish metodlari tavsifi

Ta'lim tizimini isloh qilishda «Ta'lim to'g'isida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur hujjatlarda ta'lim tizimini bosqichma bosqich yangilash, xalqaro talablar asosida Yangi turdagi ta'lim muassasalarini yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. «Biz nafaqat siyosiy jabhani, balki iqtisodiyotni ham, ijtimoiy hayotni ham, ma'naviy-axloqiy sohani ham isloh qilishimiz zarur. Bu g'oyat keng ko'lamdagi islohotlar bo'lib, biz ularni kompleks tarzda hal qilish orqaligina o'z maqsadlarimizga erisha olamiz» - deb ta'kidlagan edi yurtboshimiz Islom Karimov. Yangicha ta'lim tizimini qurish, pedagogik jarayonga Yangi ta'lim texnologiyalarini kiritish, o'quvchi-yoshlarni, talabalarni mustaqil, ijodiy ishlashga, erkin fikrlashga o'rgatish, pedagogik jarayonlarda noan'anaviy, qiziqarli, faol innovasion usullarni qo'llashni hozirgi kun talabi taqozo qilmoqda. Xo'sh pedagogik jarayonlarda bu usullardan qanday foydalanish kerak? Noan'anaviy, qiziqarli, faol, innovasion usullarning qanday turlari mavjud? Mazkur savollarga beriladigan javoblar ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga oid dolzarb muammolarni hal etishga yordam beradi.

O'qitish jarayonlarida noan'anaviy ta'lim usullaridan: «Konferensiya darsi», seminar darsi, «Aralash darslar», «O'yinchoqlar yordamida dars o'tish», «Kasbga bog'lab dars o'tish», «Badiiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish», «Evrika(o'y lab top)»; ta'limning qiziqarli faol usullaridan: «Kichik va katta guruhlarda ishlash», «Roli o'yinlar», «Sahna ko'rinishi», «Krossvordlar echish», «Zakovat savollari», «test sinov topshiriqlari», «Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o'tish», «Sinkveyn o'yinlari»; shuningdek, ta'limning innovasion (yangi) usullari» Modifikasiyalashgan ta'lim», «Improvizasiya», «Aqliy hujum», «Debat», «tang'qidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul», «Klaster usuli», «Muammoli vaziyat», «Muayyan holat, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish», «Har

kim harkimga o'rgatadi», «Nuqtai nazaring bo'lsin», «Multimedia vositalaridan foydalanish» va boshqalarni qo'llash muhimdir.

Improvizasiya – tayyorgarliksiz bayon etish usuli bo'lib, o'qituvchi talabalarga savol yoki topshiriq beradi va darhol uning javobini tayyorgarlisiz tushuntirib berishlarini so'raydi. Bu usulning afzalligi shundaki, talabalar o'z shaxsiy fikrlariga, lunoqarashiga ega bo'ladilar, ularning og'zaki nutqi rivojlanadi, har bir savol-topshiriqlarni xotirada tez-tez tahlil qila olish ko'nikmalari shakllanadi.

Yuksak darajadagi aqliy va ijodiy harakatni talab qiladigan “Aqliy hujum” metodini o'tkazishdan oldin metodni o'tkazuvchi qatnashchilar uchun etarli darajadagi qulay tashqi muhitni yaratish lozim bo'ladi: ularni qulay joyga o'tkazadi, xonani shamollatadi, sokin musiqadan foydalanadi, g'oyalarning generatorlariga kofe yoki salqin ichimliklar ulashadi va hokazo. Qatnashchilarning aqliy va emocional holatini ko'tarish uchun “Aqliy hujum” rahbari etarli darajada erkin va demokratik holda auditoriya bilan muomila qiladigan bo'lmog'i lozim. Aqliy toliqishni oladigan psixologik mashqlarni o'tkazish mumkin. Masalan, maxsus bo'limlar talab qilinmaydigan masala yoki vaziyatlarni echish mumkin.

Shundan keyin “Aqliy hujum” metodini o'tkazishning bevosita shartlariga o'tish mumkin bo'ladi. ekranda: - maqsadlar: reja va qoidalar aks ettiriladi.

Bu tadbirlarga amalga oshirishga 10 daqiqagacha vaqt talab qilinadi.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning asosini tashkil yetadi. Boshlang'ich ta'limda asosiy davr savod o'rgatish davri hisoblanadi. Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga tovush va harflarni qay darajada singdirish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Hozirgi davr talabiga asosan har bir pedagog o'z mashg'ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil yetishi taqozo yetiladi. Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z mashg'ulotlarida o'quvchilarga chuqur bilim berishi uchun innovasion metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.


Quyida biz savod o'rgatish davrida «Improvizasiya» va «Klaster» metodlarining turli ko'rinishlaridan namunalar keltirmoqchimiz.

“Aqliy hujum” metodining shiorini tanlash. Iloji boricha “Aqliy hujum”ning shioridan foydalangan ma`qul. Chunki aynan shu shior mutaxassislar komandasini g`oyalarning tezlik bilan tug`ilishiga jalb qiladi. Metodni o`tkazuvchi ekranda bir qancha shiorlarning variantlarini tavsiya qiladi. Masalan,

1. *Biz masalani echamiz va muammolar qolmaydi!*
2. *Muammo o`ta murakkab, biz uni hal qilamiz!*
3. *Har qanday muammo yagona to`g`ri echimga ega. Agar biz uni topolmasak dahshat bo`ladi!*
4. *Har qilinmagan muammo asabni taranglashtiradi, kayfiyatni tushiradi, vijdonni qiynaydi. Vahima bizga yarashmaydi!*
5. *Muammolarni hal qilish ko`nikmasini shakllantiramiz!*

“Klaster” metodi. “Klaster” (g`uncha, bog`lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo`lib, u o`quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o`ylash va shaxsiy fikrlarni bemaolol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g`oyalar o`rtasidagi aloqalar to`g`risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob`ektga yo`naltirilmagan fikrlash shakli sinaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog`liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o`quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o`zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo`lishini ta`minlashga xizmat qiladi.

“Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi.




“Klaster” metodining qoidalari

“Qarorlar shajarasi” (“Qarorlar qabul qilish”) metodi

“Qarorlar shajarasi” metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o`zlashtirish, ma`lum masalalarda har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to`g`risini topishga yo`naltirilgan texnik yondashuvlar. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bor tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh o`quvchilari ishtirokida qo`laniladigan “Qarorlar shajarasi” bir necha o`n nafar o`quvchilarning bilimlarini darajasini aniqlash, ularning fikrlarini

jamlash va baholash imkonini beradi. Ta`lim jarayonida mazkur metodning qo`llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o`quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg`ulot jarayonida o`quvchilar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to`ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadilar):



“Qaror shajarasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo`laniladi:

1. O`qituvchi mashg`ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.
2. O`qituvchi o`quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilish, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.
3. Qaror qabul qilish jarayonida guruhlarining har bir a`zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlarini yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a`zolari bir to`xtamga kelib oladilar.
4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga etgach, har bir guruh a`zolari o`z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o`qituvchi

rahbarligida barcha o`quvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.

Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug`ilgudek bo`lsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo`lsa, o`qituvchi buning sababini izohlaydi.

2.2. 3-sinf ona tili darslarida inrerfaol usullardan foydalanishning shakl, metod va vositalari.

Morfologik materiallar 3- sinflar ona tili darsligida ancha keng o'rganiladi. To'rt yil o'qish davomida o'quvchilar so'z va uning ma'nolari, so'z shakli, so'zning morfologik tarkibi yuzasidan bir muncha bilimga ega bo'ladi. So'z turkumlari, uning asosiy, qo'shimcha va o'ziga xos belgisi ustida nazariy hamda ko'proq amaliy bilimlar oladi.

3- sinf ona tili o'quv dasturlari o'quvchilarning xususiyatlarini ularning yilma-yil aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan o'sib borishini hisobga olgan holda bosqichli ketma-ketlik tamoyili asosida tuzilgan. Shunga asosan har bir mavzuning o'quvchilar tomonidan oson o'zlashtirib olinadigan qismi quyi sinflarda murakkabroq qismi keyingi sinflarda o'rganiladi. Ba'zi so'z turkumlari boshlang'ich ta'limning hamma sinflarida o'rganiladi. Dastlab uning asosiy belgisi- narsa-buyum nomini, belgisini, sanog'ini va harakatini bildirishi o'rganiladi, o'quvchining shu olgan bilimlari asosida qanday so'roqqa javob bo'lishi singari qo'shimcha belgisi ham o'zlashtirilib olinadi. O'quvchilar sinfdan-sinfga o'tib ulg'ayib borishi bilan so'z turkumlarining o'ziga xos belgisi ham o'rganilib boriladi. O'quv materialining bunday o'rganilishi bir sinfda egallangan bilimlarning keyingi sinflarda yana takrorlanishini taqozo etadi.

O'quvchiga beriladigan bilim bolalarning ilgarigi sinflarda olgan bilimlari asosiga quriladi. Bu o'quvchining ilgari olgan bilimiga tayanib xilma-xil grammatik o'yinlarni uyushtirish imkonini beradi. Chunki mavzu yuzasidan ma'lum darajada bilim va ko'nikmalar bo'lgandagina uyushtiriladigan grammatik o'yinda o'quvchining faol qatnashishiga imkon yaratiladi. Yana bir tomoni o'quvchi o'zida bor bilimlar asosida mashg'ulotga ijodiy yondashadi, faoliyat ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda so'z turkimlari o'rganish tizimi o'quv materialini leksik va grammatik tomondan ischillik bilan boyitib borishni ko'zda tutadi. 3- sinflarda so'z turkimlarining barcha atamalari bilan tanishtirilgach, maskur atama elementar nazariy ma'lumotlarga ega bo'ladilar. 3- sinflarda o'quvchilarning o'ziga xos

leksik- grammatik xususiyatlari haqidagi bilimlari va ko'nikmalariga asoslanib og'zaki va yozma ijodiy ishlar- maktab bog'i, istirohat bog'iga sayohat uyishtirib, u yerda kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab hikoya tuzish kabilarga aloxida o'rin beriladi.

Morfologiyada o'quvchilar har bir grammatik xodisaning o'xshash va farqli tomonlarini o'rganishadi. Ularni taqqoslash orqali turli grammatik o'yinlar uyushtirish mumkin. Bunday mashg'ulotni morfologiyani o'rganishga bag'ishlangan har bir darsda ham qo'llash mumkin. Masalan atoqli otlarni o'tganda uni turdosh ot bilan, kelishik qo'shimchalarni o'tganda ularni o'zaro taqqoslash mumkin bo'lsa, ot yasovchi qo'shimchalarni o'rganganda bir-biriga yaqin bo'lgan ikki so'z yasovchi qo'shimcha yordamida grammatik o'yin uyushtirish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda morfologiya o'rnida so'z atamasi ishlatiladi. O'quvchilar leksikologiya va so'z yasashga oid bilimlarni ham so'z bo'limida o'rganishadi, shu tufayli biz ham tilshunoslikning yuqoridagi bo'limlariga oid o'yinlarni morfologik o'yinlar majmuasida berishni lozim deb bildik.

Egalik qo'shimchalarini bilasizmi? o'yini.

Egalik qo'shimchalari ot va otlashgan so'zlarga qo'shilib shaxs va narsalarning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildiradi. Bunday so'zlarni egalik qo'shimchalari bilan turlashda o'quvchilar ayrim xatoliklarga yo'l qo'yadi.

Chunki oxiri k va q undoshlari bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda ayrim tovush o'zgarishi ro'y beradi. Buning oldini olish uchun o'rganuvchilarning diqqatini qaratish maqsadida quyidagicha grammatik o'yin o'tkazish mumkin. O'quvchilar ikki yoki uch guruhga bo'linadi yoki ikki o'quvchi xattaxtaga chiqarilib egalik qo'shimchalari bilan turlash uchun so'zlar beriladi.

qalam	daftar
I sh. qalam <u>im</u>	I sh. daftar <u>im</u>
II sh. qalam <u>ing</u>	II sh. daftar <u>ing</u>
III sh. qalam <u>i</u>	III sh. daftar <u>i</u>
yurak	taroq
I sh.. yurag <u>im</u>	I sh.tarog` <u>im</u>
II sh. yurag <u>ing</u>	II sh. tarog` <u>ing</u>
III sh. yurag <u>i</u>	III sh. tarog` <u>i</u>

O`yinda barcha o`quvchilarning ishtirok etishini ta`minlash maqsadida guruhlarning har biriga oxiri k va q tovushi bilan tugagan o`ntadan so`z topish topshirig`i beriladi. O`quvchilar so`zlarni xattaxtaga navbatma-navbat yozishadi. Topshiriq bajarilgach, ana shu so`zlar orasidan uchtdan so`zni tanlab egalik qo`shimchalari bilan turlash vazifasi beriladi. Tanlangan so`zlar k va q tovushli bo`lishi zarur. O`yin oxirida guruhlar ishi yakunlanadi. Tez va to`g`ri xatosiz chiroyli yozgan guruh g`olib hisoblanadi.

Egalik qo`shimchalarini bilasizmi? o`yini.

Egalik qo`shimchalari ot va otlashgan so`zlarga qo`shilib shaxs va narsalarning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildiradi. Bunday so`zlarni egalik qo`shimchalari bilan turlashda o`quvchilar ayrim xatoliklarga yo`l qo`yadi.

Chunki oxiri k va q undoshlari bilan tugagan so`zlarga egalik qo`shimchalari qo`shilganda ayrim tovush o`zgarishi ro`y beradi. Buning oldini olish uchun o`rganuvchilarning diqqatini qaratish maqsadida quyidagicha grammatik o`yin o`tkazish mumkin. O`quvchilar ikki yoki uch guruhga bo`linadi yoki ikki o`quvchi xattaxtaga chiqarilib egalik qo`shimchalari bilan turlash uchun so`zlar beriladi.

qalam	daftar
I sh. qalam <u>im</u>	I sh. daftar <u>im</u>
II sh. qalam <u>ing</u>	II sh. daftar <u>ing</u>
III sh. qalam <u>i</u>	III sh. daftar <u>i</u>
yurak	taroq
I sh.. yurag <u>im</u>	I sh.tarog` <u>im</u>
II sh. yurag <u>ing</u>	II sh. tarog` <u>ing</u>
III sh. yurag <u>i</u>	III sh. tarog` <u>i</u>

O`yinda barcha o`quvchilarning ishtirok etishini ta`minlash maqsadida guruhlarning har biriga oxiri *k va q* tovushi bilan tugagan o`ntadan so`z topish topshirig`i beriladi. O`quvchilar so`zlarni xattaxtaga navbatma-navbat yozishadi. Topshiriq bajarilgach, ana shu so`zlar orasidan uchtdan so`zni tanlab egalik qo`shimchalari bilan turlash vazifasi beriladi. Tanlangan so`zlar *k va q* tovushli bo`lishi zarur. O`yin oxirida guruhlar ishi yakunlanadi. Tez va to`g`ri xatosiz chiroyli yozgan guruh g`olib hisoblanadi.

“Begona so`zni top” o`yini

Ushbu o`yin so`zning lug`aviy ma`nosiga e`tibor berishga undaydi. O`quvchining xotirasini mustahkamlaydi. Tez o`ylab, tez javob berishga odatlantiradi. Uni har xil mavzularda o`tkazish mumkin. Bunday o`yinni o`tkazganda bir xil umumiylikka ega bo`lgan so`zlar tanlanadi.

1. Toshkent, Andijon, Qarshi, Termiz, Boku. (Begona so`z Boku. Hamma shaharlar O`zbekistonda, Boku esa mamlakatimizdan tashqarida joylashgan).
2. Oybek, Hamid Olimjon, Bobur, Gafur G`ulom, Komil Yashin. (Begona so`z-Bobur. Hammalari XX asrda yashab ijod etgan, Bobur esa mumtoz adabiyot vakili).
3. Avtobus, mashina, traktor, samolyot, motosikl (Samolyot-begona so`z. Boshqalari erda yuradi. Samolyot esa ko`kka parvoz qiladi).

4. Ot, sifat, son, olmosh, kesim, fe'l. (kesim so'zi begona. Hamma so'zlar so'z turkumlarini bildiradi. Kesim so'zi gap bo'lagidir).

“So'zning o'rnini top” o'yini

Atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi haqidagi o'rganilgan qoidalarni mustahkamlash maqsadida ushbu o'yin o'tkaziladi. O'yin orqali kishilarning ismi va familiyasi, o'rin-joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi mustahkamlanadi. O'yinni o'tkazish oldidan o'quvchilarga kartochkalar beriladi. Kartochkalarda she'riy parcha yoki gap yozilishi mumkin. Maskur matndagi bosh harflar bilan yoziladigan so'zlar tushirib qoldiriladi.

O'quvchiga yana ikkinchi kartochka beriladi. Unda tushurib qoldirilgan so'zlar yozilgan. O'quvchi tushurib qoldirilgan so'zlarni gapning mazmuniga qarab nuqtalar o'rniga qo'yishi va o'qishi kerak. Tushirib qoldirilgan so'zni tog'ri qo'yib o'qigan bola o'yin g'olibi hisoblanadi.

1.-kartochka

... *... birinchi bo'lib ona tilida*

... *(besh doston) yozdilar. U.... tug'ilgan.*

Tushirib qoldirilgan so'zlar: “Hamsa” Hirotda, Alisher Navoiy

2.-kartochka.

... *o'n ikki yoshida otasining taxtiga o'tirdi ... nomli asar yozdi. U ... vafot etdi.*

Tushirib qoldirilgan so'zlar: “Boburnoma” Bobur, Hindistonda.

O'quvchilar bir-ikki marta o'yinga qatnashib, ma'lum darajada ko'nikma hosil qilishgandan keyin har ikkala kartochkaga ham boshqa so'zlarni aralashtirib kiritish mumkin. Ba'zan har ikkala kartochkada tushirilgan so'zlarni bir xil kartochkaga yozsa ham bo'ladi. Bu o'quvchini kerakli atoqli otni tanlab olishga o'rgatadi. Qaysi o'quvchi topshiriqni tez, to'g'ri bajarsa o'yin g'olibi bo'ladi va rag'batlantiriladi.

Bunday o'yinni umuman tushirib qoldirilgan so'zlarni o'z o'rniga qo'yib o'qish tarzida uyushtirish mumkin. O'yinni bajarish davomida bolalar so'zning ma'nosiga e'tibor berishadi. Quyida ikki banddan iborat she'rlar berilgan, uning

ikkala bandi ikki o'quvchiga beriladi. Tushirib qoldirilgan so'zlar har ikkala kartochkada ham to'liq beriladi. O'quvchi kerakli so'zni tanlab oladi.

1-kartochka

2-kartochka

Boychechak

Muhammadjon Qo'shoqov she'ri.

U ochildi ... chog'ida

Qarab tursam, u gunafsha,

Erka chechak, oy chechak.

. . . ham suluvroq.

. . . deb ataladi,

. . . keldi deb chorlovchi,

Gullar ichra kelinchak.

Go'yoki . . . qo'ng'iroq.

Tushirib qoldirilgan so'zlar: *Loladan Boychechak, jajji, tong bahor.*

Mehmon

Ollobergan Po'lat she'ri

1-kartochka

2-kartochka.

Bog'da... dugona

Patnis bezadi.... ,

Hulkar bilan... .

Olma,, konfet qo'yib.

Ikkalasi o'tirib,

O'yin bahonasida

. . . mehmon-mehmon.

Zeboxon.... to'yib.

Tushirib qoldirilgan so'zlar: *inoq, o'ynadi, oldi, nok, Zeboxon, Hulkar.*

O'quvchilar ushbu o'yinni quyidagicha bajaradilar.

1-kartochka

2-kartochka

Boychechak

Muhammadjon Qo'shoqov she'ri.

U ochildi tong chog'ida

Qarab tursam, u gunafsha,

Erka chechak, oy chechak.

Loladan ham suluvroq.

Boychechak deb ataladi,

Bahor keldi deb chorlovchi,

Gullar ichra kelinchak.

Go'yoki jajji qo'ng'iroq.

Mehmon

Ollobergan Po'lat she'ri

1-kartochka

Bog'da inoq dugona

Hulkar bilan Zeboxon.

Ikkalasi o'tirib,

O'ynadi mehmon-mehmon.

2-kartochka.

Patnis bezadi Hulkar ,

Olma, nok, konfet qo'yib.

O'yin bahonasida

Zeboxon oldi to'yib.

Sinonim va antonimlar ustida ishlash

Boshlang'ich sinf o'quvchilari 1-sinfdan boshlab so'zlarning lug'aviy ma'nolari bilan amaliy tanishib boradilar. Ularning ana shu bilimlarini shakllantirish maqsadida xilma-xil mustaqil ishlar olib boriladi. O'quvchilarning sinonim, antonim va omonim so'zlar yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash, ularning qiziqishlarini orttirish maqsadida bolalarni o'ylantirishga, mulohaza yuritishga, so'zlarni taqqoslashga da'vat etuvchi bir qator grammatik o'yinlarni qo'llash mumkin.

So'zni boshqacha ayt o'yini

O'quvchilar boshlang'ich sinflarda sinonim so'zlar bilan ona tili va uni o'qitish hamda boshqa darslarda tanishgan. Ularning ana shu so'zlarga diqqati tortiladi. Natijada yuqori sinflarda ushbu mavzuni samarali o'rganishga tayyorlaydi. O'qituvchi sinf o'quvchilarini bir necha guruhga ajratadi. Har bir guruh o'qituvchi aytgan so'zning sinonimini aytadi. O'qituvchi *botir* so'zini o'qiydi, o'quvchilar o'z bilganlari bo'yicha sinonim so'z aytadi. Botir, qo'rqmas, dovyurak. Har doim ham o'qituvchining o'zi sinonimlarning birini aytishi shart emas. Bu o'yinni o'quvchilarning o'zlari davom ettirishi ham mumkin. Buning uchun birinchi guruh o'quvchilari 4 so'z aytishadi. Ikkinchi guruh o'quvchilari tegishli sinonim so'zlarni aytadi. Shundan keyin ikkinchi guruh o'quvchilari 4 so'z aytadi, birinchi guruh o'quvchilari shu so'zlarning sinonimini topib aytadi. O'quvchilar aytadigan so'zlar boshlang'ich sinflarda o'tilgan va o'rganilgan

bo'lishi lozim. Agar o'rganilayotgan so'zning birdan oshiq, sinonimlari bo'lsa o'quvchi ularni ham aytishi mumkin.

botir- qo'rqmas, dovyurak	kichik-mitti-jajji
katta-ulkan-ulug'-bahaybat	bahaybat –haybatli
vatan-diyor	maqsad-niyat
mazali-lazzatli	bahor-ko'klam
gapirdi-aytdi	askar-jangchi
yuz-bet-bashara	shirin- mazali

AKSINI AYTISH O'YINI.

Bu o'yin orqali o'quvchilarning qarama-qarshi ma'noli (antonim) so'zlar yuzasidan olgan amaliy bilimlari mustahkamlanadi. Aksini ayt o'yinini ham sinonim so'zlar yuzasidan o'tkaziladigan o'yin tartibida uyushtirish mumkin.

qattiq-yumshoq	kecha-kunduz
katta-kichik	uzun- qisqa
achchiq-chuchuk	tez-sekin
baland-past	oq-qora
shirin-achchiq	tuzli-tuzsiz
keng-tor	yaxshi- yomon

O'yinda qaysi guruh o'quvchilari javob topolmay qolishsa engilgan hisoblanadi. Har bir o'quvchining qiziqish va faol harakatini ta'minlash maqsadida harakatli o'yinlardan ham foydalanishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi bir so'zni aytib, uning qarama-qarshi ma'nosini ifodalovchi so'zni aytilishi uchun o'quvchiga ko'ptokni irg'itadi, o'quvchi javobni aytilish bilan ko'ptokni yana o'qituvchiga qaytaradi. O'yin shu xilda davom ettiriladi. Sinf o'quvchilarining barchasi berilgan savolga javob topishga tayyor turadi.

2.3 Tajriba-sinov ishlari

Biz malakaviy ishimizni yozish jarayonida 3-sinf ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanishga doir usullar haqida batafsil to'xtaldik. Qanday usul va tajribalardan foydalanilsa samarali natijalarga erishish mumkin degan masala ustida ilmiy izlanishlar olib bordik. Ishlab chiqqan usullarimizni Samarqand shahridagi 14- umumta'lim maktabining 3-A – sinfida tajribadan o'tkazdik. Nazorat sinfi etib mazkur umumta'lim maktabning 3-B – sinfini tanladik. Ma'lum bir muddat o'tgach, har ikkala sinf o'quvchilari bilim saviyasini solishtirib ko'rdik. Bu boradagi fikr-mulohazalarimizni, xulosalarimizni, 3-sinf ona tili darslarida inrerfaol usullardan foydalanish"ning afzal tomonlari, ahamiyati va tajriba davomida erishgan yutuqlarimizni to'la yoritishga harakat qildik.

Biz tajriba-sinov jaroyonining boshida, o`rtasida va oxirida boshlang'ich sinf o`quvchilarining 3-sinf ona tili darslarida nutq o`stirish usullaridan so`ng bilim va ko`nikmalarining shakllanishi hamda o`sib borishini og`zaki savol-javob, tyest va yozma ishlar tarzida aniqlash usullari orqali tekshirib, nazoratdan o`tkazib bordik.

Tajriba-sinov o`tkazishdan oldingi har ikkala sinf o`quvchilarining ko`rsatkichlari tajriba-sinov o`rtasiga borib tajriba-sinov o`tkazayotgan 3^A -sinf o`quvchilarida o`sib borayotganini, ularda ro`y berayotgan o`zgarishlarni, rivojlanib borayotgan qobiliyatlarini va o`zlashtirish ko`rsatkichlarini ko`rib, bu borada olib borayotgan ishlarimizni sidqidildan davom ettira boshladik. Tajriba-sinov yakuniga borib, nazoratga olgan 3^B- sinf o`quvchilariga qaraganda tajriba-sinov ishlarini olib borayotgan 3^A-sinf o`quvchilarida ijobiy o`zgarishlar ro`y berganining guvohi bo`ldik.

Tajriba-sinov yakunida quyidagi samarali natijalarga erishdik:

- 1.Og`zaki nutqlari rivojlantirildi;
- 2.Lug`at boyliklari oshirildi;
- 3.So`zlarni to`g`ri talaffuz qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
- 4.Ona tili grammatikasiga oid bilim va ko`nikmalari shakllantirildi;
- 5.Ona tili fanini boshqa fanlar bilan bog`lab o`rganish qobiliyatlari rivojlantirildi;

- 6.O`quvchilarning fikrlash qobiliyatlari rivojlantirildi;
- 7.Tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
- 8.Dunyoqarashlari kengaytirildi;
- 9.O`z ona tilisiga bo`lgan mehr-muhabbatlari oshirildi;
- 10.Bilim va ko`nikmalarni egallashga bo`lgan qiziqishlari oshirildi;
11. Mashg`ulotlar davomida faol ishtirok etish xususiyatlari rivojlantirildi;
- 12.O`zlashtirish ko`rsatkichlarining oshirilishiga erishildi;

Tajriba – sinov sinfi hamda nazorat sinflari o`quvchilarining faoliyatlarini bir –biriga taqqoslab, tajriba-sinov natijasida erishilgan yutuqlarni quyidagicha shkala va diagrammalarda e`tiborimizga havola qilamiz:

1. O`quvchilar davomati

Tajriba davri Sinflar	Tajribadan oldin	Tajribadan so`ng
3^A -sinf	91%	94%
3^B sinf	90%	91%

Ko`rinib turibdiki, tajriba o`tkazayotgan sinfimizda tajriba o`tkazishdan oldin o`quvchilar davomoti 91% ni tashkil qigan bo`lsa, tajribadan so`ng davomot 94% ga ko`tarilgan. Nazorat sinfida esa o`quvchilar davomoti 1%ga o`zgargan


2. O`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagicha ko`rinishga ega bo`ldi:

Tajribadan oldin:

O'zlashtirish ko'rsatkichlari	Jami o'quvchi	a`lo	yaxshi	o`rta	qoniqarsiz
3 ^A –sinf	32	6	14	10	2
3 ^B –sinf	30	5	13	10	2

TAJIRIBADAN OLDINGI NATIJA

3^A –sinf tajriba sinf
3^B –sinf nazorat sinf




TAJRIBA SINIF	NAZORAT SINIF
5 baho – 6 ta - 17 %	5 baho – 5 ta - 17 %
4 baho – 14 ta – 39 %	4 baho – 13 ta - 43 %
3 baho – 10 ta - 28 %	3 baho – 10 ta - 33 %
2 baho – 2 ta - 6 %	2 baho – 2 ta - 7 %

Tajribadan so`ng:

O`zlashtirish ko`rsatkichlari	Jami o`quvchi	a`lo	yaxshi	o`rta	qoniqarsiz
3 ^A –sinf	32	10	13	8	1
3 ^B –sinf	30	8	12	8	2

TAJRIBADAN KEYINGI NATIJA

3^A –sinf tajriba sinf
3^B –sinf nazorat sinf



TAJRIBA SINIF	NAZORAT SINIF
5 baho – 10 ta - 30 %	5 baho – 8 ta - 24 %
4 baho – 13 ta - 43 %	4 baho – 12 ta - 36 %
3 baho – 8 ta - 24 %	3 baho – 8 ta - 24 %
2 baho – 1 ta - 3 %	2 baho – 2 ta - 6 %

Ona tili darslarini yangi pedagogik texnologiyalar, ayniqsa, o`yin tarzida tashkil etish orqali o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari yuqoridagi shkalda ko`rsatilgan natijalarni qayd etdi.

Tajriba sinfida yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilar tajribadan oldin 2 nafarni tashkil etgan bo`lsa, tajribadan so`ng ushbu sinfda yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilarning 1 nafari o`rta bahoga 1 nafari yomon bahoga o`zlashtira boshladilar. Nazorat sinfida esa yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilar 2 nafarligicha qoldi. Avval ular 2 nafarni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng yana 2 nafarni tashkil qildi.

O`rta bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 3^A-sinfda 10 nafar edi. Tajribadan so`ng 2 nafarga kamayib, 8 nafarni tashkil qildi. Ushbu sinfda o`rta va qoniqarsiz bahoga o`qiydigan o`quvchilar 12 nafarni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng ular 9 nafarni tashkil qildi. Bu 25% o`quvchilar yaxshi bahoga o`zlashtirganliklarini bildiradi. 3^B -sinfda esa tajribadan oldin 10 nafar o`quvchi o`rta bahoga o`qishgan bo`lsa, tajribadan so`ng ular 8 nafarni tashkil qildi.

Yaxshi bahoga o`qiydigan o`quvchilar avval 3^A -sinfda 14 nafarni tashkil qilgan edi. Tajribadan so`ng ular 14 nafarni tashkil qildilar. Ushbu sinfda 6 nafar o`quvchi o`rta bahodan yaxshi bahoga o`zlashtirganliklarini etiborga olsak, jami 7 nafar o`quvchi a`lo bahoga o`qiy boshlagan bo`ladilar. O`z-o`zidan ushbu sinfda a`lo bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 10 nafardan 15 nafarga oshadi. Nazorat sinfida esa tajribadan oldin yaxshi bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 8tani tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng yaxshi bahoga 10 nafar, a`lo bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 7 nafarga oshadi.

XULOSA

“Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin.”¹

3-sinf ona tili darslarida inrerfaol usullardan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarning ona tili grammatikasi bo'yicha bilim va ko'nikalarini o'stirish boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'qitish jarayoniga katta mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Chunki endigina o'z ona tilisining grammatik qonun-qoidalarini o'rganayotgan, harflarni bir-biriga qo'shib, so'zlarni esa bir-biriga qo'shib gap yasashga o'rganayotgan, matnni ifodali o'qish qoidalari bilan tanishayotgan boshlang'ich sinf o'quvchisiga bir vaqtning o'zida ta'lim va tarbiya byerish, ularga sharqona odob-axloq, iymon-e'tiqod, mehnatsevarlik, tinchliksevarlik kabi insoniy fazilatlar haqidagi tushunchalarni singdirish bilan birga ularning ona tilining murakkab grammatikasi yuzasidan tushunchalarini o'stirish bir muncha murakkablikni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, saviyasi va bilimni qabul qila olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish, o'qitish prinsiplari va metodlariga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Biz tajriba-sinov mashg'ulotlarini olib borish jarayonida shunga amin bo'ldikki, darslarda noan'anaviy myetodlarni qo'llash, yangi pyedagogik tyexnologiyalardan unumli foydalanish, dars qismlarida sport o'yinlaridan, turli xil musobaqalardan yoki qiziqarli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarda, nafaqat, chuqur bilim va ko'nikmalarini hosil qilishda, balki insoniy fazilatlarini o'stirib borishda samarali natijalar beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqarli o'yinlarni o'ynashga bo'lgan qiziqishlaridan unumli foydlanib, dars jarayonlarida, ayniqsa, ona tili _

1.Karimov I.A “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”. “Sharq” nashriyoti. T. 1999- yil. 16-bet.

daralarida til;ning grammatik qurulishi bilan tanishtirib borish, mavzuga oid mashqlar bajarishda, qolaversa, uy vazifalarini tekshirishda ko'proq qiziqarli o'yinlardan foydalandik.

Qo'llagan usullarimiz orqali o'quvchilarning ona tili grammatikasiga oid tushunchalarini o'stirishga harakat qildik. Natija esa yomon bo'lmadi.

Ona tili daralarida noan'anaviy usullardan, qiziqarli o'yinlardan foydalanganimizda o'quvchilarning, avvalo, darsiga bo'lgan qiziqishlari ijobiy tomongan o'zgardi. O'qish darsiga qiziqmagan o'quvchilarda darsga qiziqish uyg'ota oldik.

Eng asosiysi, tili xil qobiliyatlari, talant qirralarini rivojlantirishga, bilim va ko'nikmalarni tez o'zlashtirib olishlariga, ona tili darsi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz, sharqona odob-axloq normalarini rivojlantirishga erishdik.

Bundan tashqari, ona tili daralarida qiziqarli o'yinlar o'tkazish, sinf o'quvchilarini kichik guruhlarga bo'lib ishlash kabi usullardan foydalanganimizda o'quvchilarning mashg'ulot davomida erkin harakat qila olishga, o'zlarida his etayotgan tortinchoqlik, uyatchanlik, biladigan narsasini aytib berishga jur'at eta olmaslik kabi salbiy xarakterlaridan qutulishga, erkin fikrlash, mustaqil ravishda xulosa chiqarish, fikr-mulohazalarini va xulosalarini erkin bayon eta olish, kamtarlik, rostgo'ylik, hushmuomalalik, mehnatsevarlik kabi qobiliyatlarini shakllantirishga va uni rivojlantirishga erishdik.

Ona tili daralarida olib brogan tajriba-sinov ishlarimiz orqali biz quyidagi natijalarga erishdik:

1. Og'zaki nutqlari rivojlantirildi;
2. Lug'at boyliklari oshirildi;
3. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
4. Ona tili fanidan qo'shimcha mashqlar ko'nikmalari
5. Fikrlash qobiliyatlari rivojlantirildi;
6. Tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
7. Dunyoqarashlari kengaytirildi;

8. O'z ona tilisiga bo'lgan mehr-muhabbatlari oshirildi;
9. Bilim va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan qiziqishlari oshirildi;
10. Mashg'ulotlar davomida faol ishtirok etish xususiyatlari rivojlantirildi;
11. O'zlashtirish ko'rsatkichlarining oshirilishiga erishildi;

3-sinf ona tili darslarini noan'anaviy usullardan, didaktik o'yinlardan foydalangan holda tashkil etish o'quvchilarning jazzi qalblarida milliy iftixor va milliy g'ururni shakllantirish bilan birga kamtarlik, rostgo'ylik, hushmuomalalik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini rivojlantirish hamda komil inson bo'lib yetishishlarida katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarning, nafaqat ona tili darslarida balki boshqa har qanday dars turlari davomida yangi pyedagogik texnologiyalarni qo'llash, noan'anaviy dars usullaridan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashish juda ham katta samarali natijalar berishiga ishonch hosil qildik.

TAVSIYALAR

Boshlang'ich sinf ona tili darslarini, xususan, 3-sinf ona tili darslarini turlicha tashkil etish mumkin. Bu esa darsning samaradorligini oshiradi, bolalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

3-sinf ona tili darslarida mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z fanini chuqur bilishi kerak;
2. O'quvchilarning ruhiyati, xarakter-xususiyatlari bilan yaqindan tanishgan bo'lishi lozim;
3. Mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarishda yangi pyedagogik texnologiyadan unumli foydalanish lozim;
4. Vaqtni yo'qotmaslik uchun darsni loyihalab olish zarur;
5. Mavzu yuzasidan har xil ko'rgazmali qurollar, tarqatmali materiallar, krassvordlar, rebuslar, skanvordlar, test savollari tayyorlay bilishlari lozim;.

6. Dars jarayonida o'qituvchi asosiy figurani emas, balki o'quvchi asosiy figurani tashkil etishi kerak;

7. O'quvchilarni ko'proq guruhlarda ishlashga yo'naltirish, ularni mazkur mavzular bo'yicha o'z fikrini qo'rqmay, tortinmay, erkin va mustaqil bayon etishga, mushohada yuritishga yo'naltirish lozim;

8, Mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish jarayonida boshqa fanlarni shu mavzu bilan integratsiyalab, ya'ni bog'lab olib borish lozim.

Agar o'qituvchilar yuqorida ta'kidlab o'tganlarimiz asosida darslarni tashkil etib borsalar, o'quvchilarning ona tili grammatikasi bo'yicha bilim darjalarining kengayishiga, ularni har bir mavzuga befarq bo'lmasligiga, o'zarining mavzu bo'yicha erkin va mustaqil mushohada yurita olishlariga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarmiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi,” Xalq so’zi, Toshkent, 2011-yil, 22-yanvar 16-son, 4 bet.
2. Karimov I.A. “O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so’zi” “O’zbekiston ovozi”., 2010-yil.,1-sentabr, 105-son.,4 bet
3. Karimov I.A. “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – usuvor maqsadimizdir” “Ishonch”, 2010-yil, 8-dekabr. 4 bet
4. Karimov I.A.“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” “Ma’naviyat”, Toshkent. 2008 -yil. 176 bet.
5. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. “Sharq” Toshkent. 1999- yil. 184 bet
6. Karimov I.A. “Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori”. “O’zbekiston” Toshkent. 1998-yil. 194 bet.
7. Karimov I.A. “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi”. 5-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1997- yil. 166 bet.
8. Karimov I.A.“Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. 2-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1996- yil. 172 bet.
9. Karimov I.A. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”. 3-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1996- yil. 164 bet.
- 10.Karimov I.A.“Bunyodkorlik yo’lidan”4-tom “O’zbekiston”Toshkent. 1996- yil.
- 11.Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent “Sharq” nashriyoti, 1983-bet.
- 12.Barkamol avlod orzusi. Toshkent “Sharq” nashriyoti, 1999, 13-bet.
13. ¹I.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur»jurnali, 1998y, 2-son, 29 bet.
14. I.Karimov «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir». T.: O‘zbekiston, 2010-y. 48-bet.

II Ilmiy-uslubiy adabiyotlar:

1. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim . 2006-yil, 5- son . 48- bet.
2. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim . 2006-yil, 5- son. 48- bet.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Toshkeht., 1998-yil
4. Abdullayeva Q.M.Yusupov.S.Raxmonqulova. “O'qish kitobi” 2-sinf uchun darslik. “O'qituvchi” Toshkent. 2010- yil.176-bet.
5. R.Safarova.M.Inoyatova.M.Shokirova.L.Shermatova. “Alifbe” 1-sinf uchun darslik. Toshkent “Ma'haviyat” nashriyoti, 2010-yil.
6. Umarova M., Hakimova SH “O'qish kitobi” 3-sinf uchun darslik. “Cho'lpon” Toshkent. 2010- yil.240- bet.
1. Ushinskiy A“Ona tilini dastlabki o'qitish ” Boshlang'ich ta'lim 2002-yil 5-son
2. Ikromova.R Sh.Yyldosheva.D.Shodmonova.X.Gulomova, Ona tili . 4- sinf uchun ”O'qituvchi” Toshkent. 2010-yil
3. Lyamin V.T. Integratsiya darslari va ularga sharhlar. «Boshlang'ich maktab» jurnali Toshkent. 2000- yil. 212- bet.
4. . S.Matchonov,A.Shojalilov,X.Fulomova,Sh,Sariev,Z,Dolimov.O'qish kitobi 4-sinf uchun darslik. “Yangiyul poligrafik service” T.2011-yil.186- bet.
5. Fuzailov.S.M.Xudoyberganova,Sh.Yuldosheva. Ona tili. 3- sinf uchun ”O'qituvchi”.Toshkent.2010-yil.144- bet.
6. Qosimova K.S.Fuzailov.A.Ne'matova. Ona tili . 2- sinf uchun ”Cho'lpon”. Toshkeht. 2010.-yil.112- bet.
7. G'apparova T, E.Shodmonov.X.Gulomova. Ona tili . 1-sinf uchun. ”Sharq”. T. 2010yil.146 bet.
8. G'ulomova X. 4- sinfda ona tili darslari. ”O'qituvchi”. T. 2003-yil.192 b
- 9.Abdullayeva Q. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent. O'qituvchi. 1996

MUNDARIJA

KIRISH	3-8
I BOB. 3-sinf ona tili darslarida inrerfaol usullardan foydalanishning nazariy asoslari	
1.1 . Pedagogik texnologiyalarning mazmuni va mohiyati.	9-21
1.2. Boshlang'ich sinflardagi didaktik jarayonga umumiy tavsif	22-33
II BOB. 3-sinf ona tili darslarida inrerfaol usullardan foydalanishning amaliy shakl va metodlari	
2.1. 3-sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan noan'anaviy o'qitish metodlari tavsifi	34-39
2.2.3-sinf ona tili darslarida inrerfaol usullardan foydalanishning shakl, metod va vositalari.	40-47
2 .3 Tajriba-sinov ishlari	48-52
XULOSA.....	53-56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	57-58

